TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	839
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
O'ZBEKISTON HUDUDLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING ROLINI YANADA KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI	844
Bekchanov Davron Masharipovich	
TOG'LI SHAROITLARDI AVTOGREYDERLARNING YOQILG'I SARFIGA TA'SIR QILUVCHI FAKTORLAR	848
Sarmonov Azizbek Xoshimjonovich, Abdurkarimova Shoxsanam Murodjon qizi	
JAHON AMALIYOTIDA TASHQI SAVDO SIYOSATINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI VA ILG'OR TAJRIBALAR	855
G'iyosov Ilhom Karimovich, Toxirova Risolat Abdushukur qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI TATBIQ QILISH IMKONIYATLARIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	862
Absamatov Asqar Ergashovich	
ALOQA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI ASOSIY YO'NALISHLARI	868
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
RAQAMLI MEXANIZMLAR ASOSIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	873
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
MAMLAKATIMIZ MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	876
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI MODELLASHTIRISH	880
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
BARQAROR SANOAT VA ESG INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	884
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	



BARQAROR SANOAT VA ESG INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li

Qo'qon universiteti, i.f.f.d., dotsent v.b.

ORCID: 0000-0002-1161-8960

E-mail: turgunov.jasurbek1123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror sanoatni rivojlantirishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini integratsiyalash jarayonining nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga salbiy ta'siri, jumladan, issiqxona gazlari chiqindilari, resurslardan intensiv foydalanish va chiqindilar muammosi alohida ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, sanoatning bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Maqolada ESG tamoyillarini joriy etish orqali korxonalarda ekologik samaradorlikni oshirish, energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash, mehnat xavfsizligini mustahkamlash hamda korporativ boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, global ta'minot zanjirlarining murakkabligi, standartlashtirilgan baholash tizimlarining yetishmasligi va boshqaruv risklari kabi muammolar ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ESG yondashuvi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Muallif tomonidan ESG tamoyillarini samarali joriy etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, ESG strategiyalari, barqaror amaliyot, aylanma iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, korporativ etika, korporativ boshqaruv, mehnat xavfsizligi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of integrating Environmental, Social, and Governance (ESG) principles into the development of sustainable industry. The study examines the negative environmental impacts of industrial sectors in the context of globalization and technological advancement, including greenhouse gas emissions, intensive resource use, and waste-related issues. At the same time, it substantiates the role of industry in ensuring employment, increasing household incomes, and developing regional infrastructure. The article highlights opportunities to improve environmental efficiency in enterprises through the implementation of ESG principles, including the adoption of energy-efficient technologies, strengthening occupational safety, and ensuring transparency in corporate governance. It also provides a scientific analysis of challenges such as the complexity of global supply chains, the lack of standardized assessment systems, and governance-related risks. The research findings demonstrate that the ESG approach is a key factor in enhancing the competitiveness of industrial enterprises, increasing their investment attractiveness, and achieving long-term sustainable development. The author also proposes practical recommendations aimed at the effective implementation of ESG principles.

Keywords: industrial enterprises, ESG strategies, sustainable practices, circular economy, green technologies, corporate ethics, corporate governance, occupational safety.



Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические основы и практические аспекты интеграции принципов экологического, социального и корпоративного управления (ESG) в развитие устойчивой промышленности. В исследовании рассматривается негативное воздействие отраслей промышленности на окружающую среду в условиях глобализации и технологического развития, включая выбросы парниковых газов, интенсивное использование ресурсов и проблемы отходов. В то же время обоснована роль промышленности в обеспечении занятости, повышении доходов населения и развитии региональной инфраструктуры. В статье освещаются возможности повышения экологической эффективности предприятий посредством внедрения принципов ESG, включая применение энергосберегающих технологий, укрепление безопасности труда и обеспечение прозрачности корпоративного управления. Также проведён научный анализ таких проблем, как сложность глобальных цепочек поставок, недостаток стандартизированных систем оценки и управленческие риски.

Результаты исследования показывают, что ESG-подход является важным фактором повышения конкурентоспособности промышленных предприятий, усиления их инвестиционной привлекательности и достижения долгосрочного устойчивого развития. Автором также разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на эффективное внедрение принципов ESG.

Ключевые слова: промышленные предприятия, ESG-стратегии, устойчивые практики, циркулярная экономика, зелёные технологии, корпоративная этика, корпоративное управление, охрана труда.

KIRISH

Dunyo iqtisodiyotining modernizatsiyasi va texnologik taraqqiyoti globallashuv jarayonlarini jadallashtirayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan bir qatorda, korxonalar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Iqtisodiy o'sish jarayonida ekologik muvozanatni saqlash, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, sanoatni barqaror rivojlantirish, ekologik xavfsiz va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ta'minot zanjirlarida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan ESG strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv sanoat faoliyatining ekologik ta'sirini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va korporativ boshqaruv sifatini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiy modelda ESG tamoyillariga asoslangan sanoat transformatsiyasi global ekologik, ijtimoiy va institutsional muammolarni hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Sanoat global iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YalM)ga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, u issiqxona gazlari chiqindilari, atrof-muhit ifloslanishi va chiqindilar hosil bo'lishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, sanoat mehnat talab qiluvchi soha bo'lib, murakkab global ta'minot zanjirlariga tayanadi. Bu esa inson huquqlari buzilishi yoki noetik mehnat amaliyotlari kabi ijtimoiy va boshqaruv risklarini yuzaga keltirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab tadqiqotlarda ESG sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishning barqaror mezonlari sifatida tadqiq qilingan. Xorijiy olimlarning fikricha, ESG tamoyillari sanoat tarmoqlarining ekologik boshqaruvini yaxshilash, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va etik boshqaruvni targ'ib qilish orqali ushbu muammolarni kamaytirishning samarali usuli sifatida talqin qilinadi. Misol uchun, Friede va boshqalar (2015) fikricha, ESG mezonlari kompaniyaning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy javobgarligi va korporativ boshqaruvini baholash uchun tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Sakis, K., Chris, P., George, S. (2016) ESGning ekologik komponenti uglerod izini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror resurs boshqaruvini joriy etishga qaratilganini ta'kidlaydi.

Geissdoerfer va boshqalar (2018) yashil texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillari sanoat korxonalarda ESG maqsadlariga erishishning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rilishini ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatib o'tgan. Clark, F. va Viehslar (2015) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini amalga oshirish ekologik samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Eccles, Ioannou va Serafeim (2014) fikricha, ESG strategiyalarini o'z faoliyatiga integratsiya qilgan sanoat tarmoqlari ko'proq investorlarni jalb qiladi va hukumat tomonidan turli imtiyozlarga ega bo'ladi.

Boffo, R. va Patalano, R. (2020) ESG tamoyillarining afzalliklariga qaramay, ularni sanoat tarmoqlarida qo'llashda qator muammolar mavjudligini ta'kidlaydi. Eng asosiy muammolardan biri ekologik samaradorlikni baholash uchun standartlashtirilgan mezonlarning yetishmasligidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali ESG tamoyillarining sanoat korxonalaridagi o'rni va ahamiyati o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida sanoatning ekologik va ijtimoiy ta'siri baholandi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar sharhi orqali ESG konsepsiyasining nazariy asoslari yoritilib, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari umimlashtirildi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali umumiy xulosalar chiqarildi hamda mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida rasmiy xalqaro tashkilotlar (BMT, IEA, Jahon banki, ILO) ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

ESG tashabbuslariga sarmoya kiritgan korxonalar bozordagi mavqeini yaxshilash va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali bir qator yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishadi. Sanoatda barqaror amaliyotlarni joriy etish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, balki tartibga solish talablariga rioya etishni ta'minlash hamda operatsion samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. ESG tamoyillarini operatsion faoliyatga integratsiya qilish orqali ishlab chiqaruvchilar resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ekologik ta'sirni kamaytiradi hamda xodimlar, iste'molchilar va jamiyat bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi. Natijada innovatsiyalar rag'batlantiriladi, xarajatlar qisqartiriladi va ijtimoiy mas'uliyatli investorlarni jalb etish imkoniyati kengayadi.

BMT Atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish sektori global issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 23 % ini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich ishlab chiqarish jarayonlari, energiya sarfi hamda xomashyo va tayyor mahsulotlarni tashish bilan bog'liq omillar hisobiga shakllanadi. Xalqaro Energetika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish sanoati global energiya resurslarining qariyb 54 % ini iste'mol qiladi. Ayniqsa, sement, po'lat va kimyo sanoati kabi energiya talab qiluvchi tarmoqlar katta hajmda yoqilg'i sarflaydi. Shu sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish va energiya samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sanoatda ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, ta'minot zanjirlarida shaffoflikni ta'minlash, korporativ etika va mehnat xavfsizligini mustahkamlash kabi omillar ESG yondashuvining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, karbon chiqindilari, chiqindilarni boshqarish hamda global ekologik majburiyatlarga rioya etish masalalari sanoat faoliyatining barqarorligini ta'minlashda asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy mas'uliyat.

Sanoat global miqyosda yirik bandlik manbai hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sektor dunyo bo'yicha 450 milliondan ortiq ish o'rinlarini yaratadi. Bundan tashqari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti baholashlariga ko'ra, sanoat va unga bog'liq sohalar umumiy bandlikning sezilarli qismini tashkil etib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ish bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, sanoat tarmog'i nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholi daromadlarining barqarorligi, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat rivojlanishi.

Sanoat korxonalari joylashgan hududlarda infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, sanoatlashgan hududlarda infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar natijasida mahalliy iqtisodiy faollik o'rtacha 20–30 % ga oshadi. Shuningdek, yirik sanoat korxonalari mavjud hududlarda ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish darajasi 15–25 % ga yuqori bo'ladi. Bu esa sanoat korxonalarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda ham muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Boshqaruvda ustuvorlik.

Sanoat sektorida samarali boshqaruv tizimi shaffoflik, hisobdorlik va qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Kuchli korporativ boshqaruv mexanizmlari orqali kompaniyalar ichki nazorat tizimini mustahkamlab, manfaatdor tomonlar oldida ishonchni oshiradi hamda operatsion barqarorlikka erishadi. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sanoat korxonalarining 42 % ida boshqaruv bilan bog'liq risklar aniqlangan bo'lib, bu holat, asosan, shaffoflikning yetishmasligi, korrupsiya xavfi va nazorat tizimlarining zaifligi bilan izohlanadi. Shu sababli, zamonaviy sanoat korxonalari korrupsiyaga qarshi siyosatni joriy etish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Ta'minot zanjiri shaffofligi.

Global ta'minot zanjirlari murakkab va ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lgani sababli, xomashyoning kelib chiqishi, mehnat sharoitlari hamda ekologik ta'sirni to'liq kuzatish qiyinlashadi. OECD hisobotlariga ko'ra, yirik kompaniyalarning ta'minot zanjirlari o'rtacha 50–70 % qiymatni tashqi yetkazib beruvchilar orqali shakllantiradi,



bu esa nazorat darajasini murakkablashtiradi. Shu bois, ta'minot zanjirlarida raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, audit mexanizmlarini kuchaytirish va shaffoflikni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Chiqindilarni boshqarish.

Elektron chiqindilar (e-waste) zamonaviy sanoat va iste'mol jarayonlarining eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Har yili dunyo bo'yicha 40 million tonnadan ortiq elektron chiqindilar hosil bo'ladi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Ushbu holat atrof-muhitning ifloslanishi, zaharli moddalarning tarqalishi hamda inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, sanoat korxonalarida chiqindilarni samarali boshqarish, qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat xavfsizligi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda ishlab chiqarish sektorida 2,8 million ish joyi bilan bog'liq jarohatlar qayd etilgan. Mehnat xavfsizligi ishlab chiqarishda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u nafaqat xodimlar salomatligini himoya qiladi, balki korxona samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, xavfsizlik standartlarini joriy etish, muntazam treninglar o'tkazish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar darajasini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat xavfsizligini ta'minlashda ESG doirasidagi korporativ etika muhim tushuncha hisoblanadi. U tashkilotlarda xodimlar salomatligi va xavfsizligini ustuvor yo'nalish sifatida belgilashni nazarda tutadi. Shuningdek, u korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, ochiq hisobot berish, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. Korporativ etika kompaniya faoliyatida ishonchni mustahkamlab, risklarni kamaytiradi hamda investitsion jozibadorlikni oshiradi. Shu jihatdan, u ESG konsepsiyasining muhim elementi bo'lib, tashkilotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Sanoat korxonalarida ESG amaliyotini qo'llashning etik jihatlar¹

Mazkur rasmda korporativ etika sanoatda ESG tamoyillarining muhim tarkibiy qismi sifatida umumlashtirilgan holda aks ettirilgan. Unda korrupsiyaga qarshi siyosat, shaffof boshqaruv tizimi, ochiq hisobot berish, xalqaro standartlarga muvofiqlik va manfaatdor tomonlar bilan muloqot kabi elementlar o'zaro bog'liq tizim sifatida ifodalangan. Ushbu komponentlar birgalikda tashkilotda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlab, boshqaruv samaradorligini oshiradi. Natijada, korporativ etika nafaqat me'yoriy talab, balki barqaror rivojlanish va ishonchli boshqaruvni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuv sanoat korxonalarida ESG tamoyillarining uzviy va tizimli qo'llanishini ifodalaydi. Unda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali strategik rejalashtirish shakllanib, amaliy yo'l xaritalarini

¹ Muallifning ishlarnasi.

ishlab chiqish jarayoni ko'rsatilgan. Bu jarayon korxonaning bozordagi obro'sini oshirish, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar bilan ishonchli aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Sanoat korxonalarida ESG amaliyotini qo'llash imkoniyatlari²

ESG tamoyillarini joriy etish orqali ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga oid xavflar kamaytiriladi. Natijada korxona faoliyatida samaradorlik, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish uyg'un holda shakllanadi hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlari rivojlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lib, ESG tamoyillarini joriy etish sezilarli ijobiy natijalar keltiradi. Muammolar saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, strategik siyosiy chora-tadbirlar va barqaror texnologiyalarga investitsiyalarni oshirish ESG tamoyillarining keng qo'llanilishini jadallashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish zamonaviy iqtisodiyotning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ESG yondashuvi nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va boshqaruv sifatini yaxshilaydi. Ayniqsa, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sanoatning ekologik ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shu bilan birga, ESG tamoyillarini joriy etishda qator muammolar mavjud bo'lib, ular orasida standartlashtirilgan baholash tizimlarining yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va korxonalarda yetarli bilim hamda tajribaning mavjud emasligi alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- sanoat korxonalarida ESG ko'rsatkichlarini baholashning yagona milliy standartlarini ishlab chiqish;
- yashil texnologiyalarni joriy etish uchun davlat tomonidan moliyaviy rag'batlar va subsidiyalarni kengaytirish;
- korporativ boshqaruv tizimida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish;
- ta'minot zanjirlarida monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish;
- xodimlar uchun mehnat xavfsizligi va ekologik madaniyat bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish;
- ESG yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va ilg'or xalqaro tajribani joriy etish.

Umuman olganda, ESG tamoyillarining samarali integratsiyasi sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233.
2. Kotsantonis, S., Pinney, C., & Serafeim, G. (2016). ESG integration in investment management: Myths and realities. *Journal of Applied Corporate Finance*.
3. Geissdoerfer, M. (2018). Sustainable business model innovation. DOI: 10.13140/RG.2.2.25177.36960.

² Muallifning ishlanmasi.



4. Clark, G. L., Feiner, A., & Viehs, M. (2015-03-05). From the stockholder to the stakeholder: How sustainability can drive financial outperformance.
5. Eccles, R. G., Ioannou, I., & Serafeim, G. (2014-02). The impact of corporate sustainability on organizational processes and performance. *Management Science*, 60(11), 2835–2857.
6. Boffo, R., & Patalano, R. (2020). ESG investing: Practices, progress and challenges. Paris: OECD.
7. Turg'unov, J. A. (2024). Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashda ESG tamoyillarini qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari. *"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ommabop jurnali*, 3-son, 671–676-betlar. Toshkent.
8. Turg'unov, J. A. (2026). Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ESG tamoyillarini joriy etish ahamiyati. *Journal of Scientific Research and Their Solutions*, 9(1). ISSN: 3060-4818.
9. Transparency International. (2023). *Corruption Perceptions Index (CPI)*.
10. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (n.d.). Rasmiy veb sayt: <https://www.un.org>
11. United Nations Environment Programme (UNEP). (n.d.). Rasmiy veb sayt: <https://www.unep.org>
12. International Labour Organization (ILO). (n.d.). Rasmiy veb sayt: <https://www.ilo.org>
13. World Bank. (n.d.). Rasmiy veb sayt: <https://www.worldbank.org>
14. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (n.d.). Rasmiy veb sayt: <https://www.oecd.org>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100